

To'raboyeva Muqaddas Yoqubjanovna
 Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
 o'zbek tili va adabiyoti universiteti
 tadqiqotchisi (PhD)
muqaddastoraboyeva4@gmail.com

UZVIYLIK ASOSIDA TAFAKKURNI RIVOJLANTIRUVCHI MASHQLAR ORQALI ORFOGRAFIYA O'QITISH METODIKASI

Annotatsiya. maqolada tafakkurni rivojlantiruvchi o'quv topshiriqlar orqali uzviylikni ta'minlashning ilmiy-metodik asoslari, bugungi ona tili ta'limida uning tutgan o'rni, mavjud darsliklarda tafakkurni rivojlantiruvchi mashqlardan foydalanishning joriy holati tahlil qilingan, umumlashtirilgan, taklif va tavsiyalar ilgani surilgan.

Kalit so'zlar: uzviylik, uzluksizlik, mashq, tafakkur, ong, topshiriqlar, tafakkurni rivojlantiruvchi mashq va topshiriqlar, bilim, ko'nikma va malaka.

МЕТОДИКА ОБУЧЕНИЯ ОРФОГРАФИЮ ЧЕРЕЗ УПРАЖНЕНИЯ, РАЗВИВАЮЩИЕ МЫШЛЕНИЕ НА ОСНОВЕ ОРГАНИЗАЦИИ

Аннотация. в статье проанализированы, обобщены, выдвинуты предложения и рекомендации Научно-методические основы обеспечения преемственности посредством развивающих мышление учебных заданий, его роль в современном образовании родного языка, текущее состояние использования развивающих мышление упражнений в существующих учебниках.

Ключевые слова: непрерывность, преемственность, упражнение, мышление, сознание, задания, упражнения и задания, развивающие мышление, Знания, навыки и навыки.

METHODOLOGY OF TEACHING SPELLING THROUGH EXERCISES THAT DEVELOP THINKING ON THE BASIS OF MEMBERSHIP

Annotation. the article analyzes the scientific and methodological foundations of ensuring continuity through educational tasks that develop thinking, its role in today's native language education, the current state of use of exercises that develop thinking in existing textbooks, summarizes, proposes and recommendations are developed.

Keywords: continuity, continuity, exercise, contemplation, consciousness, tasks, exercises and tasks that develop thinking, knowledge, skills and competencies.

Kirish. Markaziy Osiyo mamlakatlarida ona tilini o'qitish, uni avaylab-asrash, milliy qadriyat sifatida ulug'lashga doir ilmiy izlanishlar uzluksiz ravishda olib boriladi. Bu borada o'quvchilarning tafakkurini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalari, jumladan, Mugla Universiteti (Turkiya), Indiana University (AQSh), Centre of increasing to pedagogical qualification on base Manchesters, Oxfords university (Buyuk Britaniya), Belfield pedagogical university Germany (Germaniya), Научный центр гуманитарных исследований (Rossiya) kabi ko'plab ilmiy markazlarda amalga oshirilmoqda.

Bugungi kun dunyo ta'lim tizimida interaktiv o'qitish tizimidan foydalanish (interactive E-learn) bo'yicha tadqiqotlar yetakchi oliy ta'lim muassasalari va ilmiy markazlarda amalga oshirilmoqda. Jumladan, Purdue University (AQSh), interaktiv ta'limni amalga oshirish BMTning International Institute for Sustainable Development (IISD), ona tilini o'qitish muammolari (Baku: Azərbaycan Dövlət Pedagoji Universiteti) mavzularida ilmiy izlanish olib borilmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review). O'quvchilar tafakkurini shakllantirish va rivojlantirish doir fundamental tadqiqotlar, elektron darsliklar, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishning nazariy asoslari hamda o'quvchilar tafakkurni rivojlantirishning psixologik mexanizmlari respublikamiz olimlaridan E.G'oziev, G'.Shoumarov, V.Karimova, M.Zufarova kabi psixolog olimlar ishlarida o'z aksini topgan; o'yinlar asosida tafakkurni rivojlantirish va o'quv-biluv jarayonini ijodiy tashkil etish muammolari bo'yicha B.Adizov, R.Ibragimov, G.Najimova, S.Sharipov, T.G'afforova, M.Xaqberdiev, M.Saidov, T.G'aniev, J.Tolipova, A.Bobomurodova, S.Nurullaeva, J.Yo'ldoshev, M.Mahmudov, G.Ne'matova, T.Ziyatova, J.Musaev, M.Usmonboeva, O.Aslonova hamda boshqalar tomonidan o'rganilgan.

MDH davlatlari olimlari F.Gonobolin, V.Kabakin, N.Kuzmina, G.Suxobskaya, Y.Osipova va V.Tamarinlarning tadqiqotlarida o'qituvchining tafakkur tezligi va uning o'ziga xos xususiyatlariga oid masalalar yoritib berilgan. N.Anisimova, L.Treyder. Yu.Kornilov, Yu.Kulyutkin, B.Teplov, O.Tixomirov, D.Cemodanova kabi olimlar tomonidan amaliy va kasbiy tafakkurni rivojlantirishning mexanizmlari bayon etilgan.

Xorijiy olimlardan G.Ayzenk, J.Piaje, D.Poya, G.Kreyg, B.Kleg, Dayana Xalperilar tomonidan intellekt va tafakkurni rivojlantirish muammolari bo'yicha testlar tizimi ishlab chiqilgan.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Ona tili ta'limda o'quvchilarning o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini baholashning haliga qadar aniq mezonlari ishlab chiqilmagan. Uzoq vaqt o'quvchilar bilimi test tizimi orqali baholab kelindi. Natijada ona tilida o'quvchilar egalashi lozim bo'lgan asosiy nutqiy ko'nikmalar rivojlanmay keldi. Ona tili o'qitish metodikasi oldidagi eng katta muammolardan biri o'quvchilarning nutqiy ko'nikmalarini baholash bo'yicha maxsus mezonlar ishlab chiqishdir.

Mamlakatimizda bugun asosiy e'tibor qaratilayotgan Uchinchi renessansning sodir bo'lishi, albatta, ilm bilan, sifatli ta'lim bilan bevosita bog'liqdir. Buning uchun yoshlarni, bo'lajak kadrlarni fikrlashga, yangicha o'ylashga, yangilik yaratishga o'rgatish lozim. Shuningdek, ilg'or xorijiy tajribalar, xalqaro mezon va talablar asosida baholash tizimini takomillashtirish, shu yo'lga xalqaro tajribalarni o'rganish, mavjud tizimni har tomonlama qiyosiy tahlil qilish, tegishli yo'nalishdagi xalqaro va xorijiy tashkilotlar, ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish orqali ko'zlangan maqsadga erishish mumkin.

Ona tili ta'limida zaruriy qoidalaridan biri bu imloviy xatolarsiz yozish uchun ikkita narsa zarur: e'tibor va imlo qoidalarini bilish. Ko'po'quvchilar tomonidan yo'l qo'yilayotgan xatolar nima yozayotganiga e'tibor qilmagani sababli xato yozishga sabab bo'lib qolgan. Ayniqsa, dasr jarayonlarida hamda ijtimoiy tarmoqlardagi ko'pchilik foydalanuvchilar o'zlaricha "qoida" kashf qilgan: "Internetda imloviy xatolar bilan yozaversa bo'ladi" degan tushuncha mavjud. Bu esa har bir o'quvchi uchun saboq tariqasida imlo qoidalariga amal qilib, xatolarsiz yozishi zarur ekanligini ona tili fani o'qituvchisi ta'kidlamog'i shart. Demak, o'quvchilar tomonidan qayerda nima yozayotganidan qat'i nazar, imlo qoidalariga muvofiq ravishda yozishga harakat qilishi kerak. Har bir harf, har bir nuqta-vergulg'a ahamiyat berish lozim. To'g'ri, boshida bu o'quvchiga biroz qiyinroq bo'ladi. Lekin doimiy ravishda o'qituvchi tomonidan to'g'ri yozishga undalsa, o'quvchi o'z-o'zidan e'tibor qiladigan bo'ladi. Imloviy xatolarsiz yozish uchun o'quvchilarga lozim bo'lgan ikkinchi narsa bu — imlo qoidalarini bilish. Har bir tilning o'z yozuv qoidalari bor. Xususan, o'zbek tilining ham. Siz bu qoidalarga amal qilgan holda yozar ekansiz, jonajon tili-mizning hurmatini o'z o'rniga qo'ygan bo'lasiz. Orfografiya, aytilganidek, to'g'ri yozish qonun-qoidalarini o'rganadi. Buning asosini imlo to'g'risidagi qoida tashkil etadi. Lotin yozuviga o'tilgandan keyin bu yozuvda ham imlo to'g'risidagi qoida qabul qilish ehtiyoji tug'ildi va u 1995-yil 24-avgustda tasdiqlandi. Hozirgi qoidalar tizimi 7 bo'lim, 82 paragrafdan iborat. Quyida faqat 31-paragrafdan keyingisini keltiramiz.

31. Yonma-yon keladigan undoshlarning imlosi:

- baland, Samarqand, poyezd; do'st, artist, g'isht kabi so'zlarda d, t ba'zan aytilmasa ham yoziladi;
- metall, kilogramm, kilovatt, kongress, kabi o'zlashma so'zlar oxirida

bir undosh aytilsa ham ikki harf yoziladi. Lekin bunday soʻzga xuddi shu tovush bilan boshlanadigan qism qoʻshilsa, soʻz oxiridagi bir harf yozilmaydi: metall+lar=metallar, kilogramm+mi=kilogrami kabi;

32. -tutuq belgisi;

- aʻlo, baʻzan, maʻyus, taʻzim; raʻy, taʻb; eʻlon, eʻtibor, eʻtiqod, meʻmor, neʻmat, sheʻr, feʻl; Nuʻmon, shuʻla kabi oʻzlashma soʻzlarda unlidan keyin shu unli tovushning choʻziqroq aytilishini ifodalash uchun qoʻyiladi; moʻjiza, moʻtadil, moʻtabar, kabi soʻzlarda oʻ unlisi choʻziqroq aytilsa ham, tutuq belgisi qoʻyilmaydi;
- inʻom, sanʻat, qatʻiy, masʻul kabi oʻzlashma soʻzlarda unlidan oldin shu unli oldingi undosh tovushdan ajratib aytilishini ifodalash uchun qoʻyiladi.

Asos va qoʻshimchalar imlosi

33. Qoʻshimcha qoʻshilishi bilan soʻz oxiridagi unli oʻzgaradi:

- a unlisi bilan tugagan feʻllarga -v, -q, -qi, qoʻshimchasi qoʻshilganda a unlisi oʻ aytiladi va shunday yoziladi: sayla-saylov, sina-sinov, aya-ayovsiz; soʻra-soʻroq, boʻya-boʻyoq; oʻyna-oʻynoqi, sayra-sayroqi kabi;
- i unlisi bilan tugagan koʻpchilik feʻllarga -v, -q qoʻshimchasi qoʻshilganda bu unli u aytiladi va shunday yoziladi: oʻqi-oʻquvchi, qazi-qazuvchi, sovi-sovuq kabi. Lekin i unlisi bilan tugagan ayrim feʻllarga -q qoʻshimchasi qoʻshilganda bu unli i aytiladi va shunday yoziladi: ogʻri-ogʻriq, qavi-qaviq kabi.

35. Quyidagi qoʻshimchalar qoʻshilishi bilan soʻzning tarkibida tovush tushadi yoki oshadi:

1. oʻrin, qorin, burun, oʻgʻil, boʻyin, koʻngil kabi baʻzi soʻzlarga egalik qoʻshimchasi, qayir, ayir kabi feʻllarda nisbat shakli yasovchisi -il qoʻshimchasi, ikki, olti, yetti soʻzlariga -ov, -ala qoʻshimchalari qoʻshilganda ikkinchi boʻgʻindagi unli aytilmaydi va yozilmaydi: qorin-qorni, koʻngil-koʻngli; qayir-qayril, ulugʻ-ulgʻay, sariq-sargʻay kabi;

2. u, bu, shu, oʻsha olmoshlariga -da, -dan, -day, -dagi, -gacha, -cha qoʻshimchalari qoʻshilganda n tovushi qoʻshib aytiladi va shunday yoziladi: unda, bunday, shunda, oʻshancha kabi; bu olmoshlarga egalik qoʻshimchalari quyidagicha qoʻshiladi: burningiz, oʻshanisi kabi;

3. o, oʻ, u, e unlisi bilan tugaydigan soʻzga egalik qoʻshimchasi quyidagicha qoʻshiladi:

- koʻpchilik soʻzlarga egalik qoʻshimchalari -m, -ng, -si; -miz, -ngiz, -si (yoki -lari) shaklida tovush orttirmay qoʻshiladi: bobom, bobong, bobosi; bobomiz, bobongiz, bobosi (yoki bobolari); orzum, orzung, orzusi; orzumiz, orzungiz, orzusi kabi;

- parvo, obroʻ, mavqe, mavzu, avzo soʻzlariga birinchi, ikkinchi shaxs egalik qoʻshimchalari qoʻshilganda bir y tovushi qoʻshib aytiladi va shunday yoziladi: parvoyim, parvoying; parvoyimiz, parvoyingiz; obroʻyim, obroʻying; obroʻyimiz, obroʻyingiz kabi; uchinchi shaxs egalik qoʻshimchasi parvo, avzo, obroʻ, mavqe soʻzlariga -yi shaklida, xudo, mavzu soʻzlariga esa -si shaklida qoʻshiladi: avzoyi, mavzusi kabi (dohiy kabi y undoshi bilan tugagan soʻzlarga ham uchinchi shaxsda -si qoʻshiladi: dohiysi kabi);

4. men, sen olmoshlariga -ni, -ning, -niki qoʻshimchalari qoʻshilganda qoʻshimchadagi n tovushi aytilmaydi va yozilmaydi: meni, mening, meniki; seni, sening, seniki kabi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Ona tili taʼlimida oʻquvchilardan diktant olish jarayonida aynan quyidagi imlo xatolarida yozishlarni koʻrishimiz mumkin.

Chiziqcha bilan yozish

51. Juft soʻz va takror soʻz qismlari chiziqcha bilan yoziladi: el-yurt, mehr-shafqat, qovun-tarvuz, omon-eson, kecha-kunduz, yozin-qishin, asta-sekin, uch-toʻrt, oʻn-oʻn beshta (10-15 ta), bilinar-bilinmas, bordi-keldi, kuydi-pishdi, don-dun, oz-moz, mayda-chuyda, aldab-suldb, oʻylab-netib, soʻramay-netmay, kiyim-kechak, adi-badi, ikir-chikir, ich-ichidan kabi.

- juft soʻzdan qoʻshimcha yordamida yasalgan soʻzlar ham chiziqcha bilan yoziladi: baxt-saodatli, xayr-xoʻshlashmoq kabi;

- juft soʻz qismlari orasida -u(-yu) bogʻlovchisi kelsa, undan oldin chiziqcha qoʻyiladi va juft soʻz qismlari ajratib yoziladi: doʻst-u dushman (doʻst-dushman), kecha-yu kunduz (kecha-kunduz) kabi;

• yetakchi va ko'makchi fe'l bir xil shaklda bo'lsa, chiziqcha bilan yoziladi: yozdi-oladi, borasan-qo'yasan kabi.

52. Belgini kuchaytiruvchi qip-qizil, yam-yashil, dum-dumaloq, kuppa-kunduzi, to'ppa-to'g'ri, bab-barobar kabi so'z shakllari chiziqcha bilan yoziladi (lekin oppoq so'zi qo'shib yoziladi).

53. So'zning -ma, ba- yordamida birlashgan qismlari chiziqcha bilan yoziladi: ko'chama-ko'cha, uyma-uy, rang-barang, dam-badam kabi. Lekin mustaqil ishlatilmaydigan qism qatnashsa, bunday so'zlar qo'shib yoziladi: ro'baro', darbadar kabi.

54. Rus tilidan aynan yoki so'zma-so'z tarjima qilish yo'li bilan olingan so'zlar asliga muvofiq chiziqcha bilan yoziladi: unter-ofitser, kilovatt-soat kabi.

55. -chi, -a(-ya), -ku,-u(-yu), -da, -e, -ey yuklamalari chiziqcha bilan yoziladi: sen-chi, kutaman-a, mingta-ya, keldi-ku, kelgan-u, qo'y-e, yashang-e, keldi-ey kabi. Ammo -mi, -oq(yoq), -ov(yov), -gina(-kina, -qina) yuklamalari o'zidan oldin kelgan so'zga qo'shib yoziladi: keliboq, o'ziyoq, ko'rganov, mengina, qo'shiqqina kabi.

56. Tartib son arab raqami bilan yozilsa, -nchi qo'shimchasi o'rniga chiziqcha(-) qo'yiladi: 7-sinf, 5-"A" sinfi, 60-yillar, 1-sentyabri kabi. Tartib sonni ko'rsatuvchi rim raqamidan keyin chiziqcha yozilmaydi: XX asr, X sinf kabi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Bir paytning o'zida imlo savodxonligi, lug'at boyligining oshishi va fikrlay olish malakalarini shakllantirishga yo'naltirilgan maxsus topshiriqlar tizimi ishlab chiqilib, dars jarayonida qo'llab ko'rildi va nutqiy malakalarni kompleks tarzda shakllantirishga erishiladi.

Ta'lim tizimining umumiy o'rta ta'lim bosqichida o'quvchilarni ona tili o'quv predmeti asosida mustaqil ishlashga, o'z fikrini og'zaki va yozma shakllarda ravon va ta'sirchan ifodalay olish ko'nikmalarini shakllantirish bugungi ta'lim oldida asosiy vazifa sifatida turibdi. Zero, o'quvchilarni ma'rifatli, bir so'z bilan aytganda barkamol shaxs sifatida tarbiyalashga alohida ahamiyat berilishi talab etilmoqda. Bu jarayonda yosh avlodning jamiyat rivojiga mos bilim, ko'nikma va malakalar sohibi bo'lishi muhimligini ta'kidlash lozim. Jumladan, umumta'lim maktablarining 5–9-sinf o'quvchilarida ona tili fani, xususan, o'quv topshiriqlari orqali tafakkurni rivojlantiruvchi topshiriqlar asosida mustaqil, ijodiy fikrlashga o'rgatish, jozibali og'zaki va yozma nutqning asosi bo'lgan so'z boyligini oshirish bugungi ona tili ta'limining mazmuni va maqsadini tashkil etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbek tilining o'quv imlo lug'ati. –T.: O'qituvchi. – 440-b.
2. G'ulomov A., Ne'matov H. Ona tili ta'limi mazmuni.–T.: O'qituvchi,1995.
3. Dewey J. Philosophy education: Democracy and education. Vasila publishing, 2021. - 1029 p.
4. William T. Gormley Jr. The Critical Advantage: Developing Critical Thinking Skills in School. Harvard Education Press, 2017. -248 p.
5. Selyutina N.A. Cluster as one of the methods for the development of critical thinking // Methodist. 2018. No. 5. P. 44-51.
6. Tamme E.V. Designing a model of the process of formation of critical thinking among students of the main general education school // Society, sociology, psychology, pedagogy. 2022. No. 4 (96). pp. 207-213.